

## TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

*Xo'jamurodov Xujanazar*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi  
14-jm 23-guruhan talabasi*

**Anantatsiya:** Tarbiyamaqsadi va mazmuni metodlarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur. Tarbiyaning mazmunini shaxsning shakllanishiga qo‘yluvchi, ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bolishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiyaning maqsadi umumiy vazifalari, tor manodagi tarbiya, keng ma‘nodagi tarbiya, tarbiya tamoyillari, tarbiya usullari, tarbiya vositalari. Keng ma‘noda tarbiya shaxsga jamiyatning tasir etishi, tarbiya jarayoni, shaxs tarbiyasi, pedagogik qarashlar, xulq-odob qoidalari.

### KIRISH

Jamiyat azolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish jamiyat rivoji uchun zarur bolgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi „inson kapitali“ ni tayyorlash madaniyatlarni kuzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini taminlash malum jins, yoshi ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda va ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish. Tarbiya jarayonida tarbiyalanivchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bulgan anotamik, fizikalologik va pisixologik xususuyatlardir. Masalan; mas’uliyat tuyg‘usini boshlangich ta’lim, o’rta ta’lim va o’rta mahsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o’quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda maskur sifatni shakillantirish borasida turli metodlar qo’llaniladi. Tarbiyaning mazmuni shahsning shakllanishiga qo‘yluvchi ijtimoiy talablar, mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas balki aniq fikr bilan boglash g‘oyat muhimdir. Ta’lim tarbiya jarayonining izchil, uzlucksiz, tizimli hamda intilishi aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi mazkur jarayonda fanlar aro aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning, birligiga tayangan holda ish ko‘rish ko‘zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. O’quvchilar odatda hayot adabiyotlardan olingan aniq misollar

bilan boyitilgan hikoyalarini katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahromonlar hayoti va jasorati shuningdek tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio televidenie, gazeta jurnallar sahifalarida hamda internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq atvoriga taqlid qiladilar, xulq atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning ba'zan, esa, yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qtuvchi va ota-onalar har, qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozimdir. Kattalarning so'zi bilan yurish - turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Tarbiya vaqt qachonki vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, "kuchli harakatga keltiradigan" metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning oddiy metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani „kuchli harakatga keltiradigan" va „oddiy" metodlarga bolinishi shart: birinchisi tanbih berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda tarbiyasida muvoffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bulishi kerak. Buning uchun qllanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqiyatidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy ta'lim tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladi. shu jamiyat uchun hizmat qiladigan yilik, insonni tarbiya lashdaniborat deb biladi. Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinnegallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobilyatni tarbiyalaydi va aqilni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda asta sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy insitutlarning rivojlanishiga bogliq. Ma'naviy, va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rinnegallaydi. Bolalarda taqlidchanlik hususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla

Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot -yo xalokat, yo saodat - yo falokat masalasidur». Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lif oluvchilarining egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalari: jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash; ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

**XULOSA** Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya jarayonlarini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Uni rivojlantirishda birinchi qadam ta'lif muassasalari va oliy ta'lif yurtlari hisoblanadi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lif muassasalari o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish va ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi va unda umumiy o'rta ta'lif muassasalarida „Odobnama”, „Vatan tuyg'usi”, „Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” hamda „Dunyo dirlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona „Tarbiya” fani 1-9-sinflarda 2020/2021 o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Tarbiya ma'lum bir muddat ichida o'rganib va o'rgatib bo'linadigan jarayon emas. Shuning uchun bu jarayon bolalarni maktabda ketishi bilanoq boshlanadi va uni tamomlagunicha va undan keyin ham davom etadi. Shuningdek, bu jarayon-o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etuvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiyaning asosiy vazifasini tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiluvchi jarayon sifatida qaraladi. Har bir tushunchani ikki tomonlama ya'ni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Uni keng ma'noda, tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishga, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lif maqsadini amalgalash oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilar maxsus tashkil etilgan faoliyatoni tushunish mumkin. Tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoit yaratish. Shuningdek,

bobolarimiz aytishganidek ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, shuning uchun ular uzviy bog'liq. Buyuk faylasuf va mutaffakkir Umar

### **Ishlatilgan adabiyot**

1. J.Hasanboyev „Pedagogika (pedagogika nazaryasi va tarixi). O'zR Oliy va o'rta ta'lim vazirligi Toshkent Nashir 2011.
2. X. Ibragimov, sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi., T., "Fan va texnologiya", 2008. Masul muharrir:p.f.d, professor R.H. Jo'rayev
3. Pedagogika (pedagogika nazaryasi va tarixi):O'qtuvchilar: M. X. Toxtaxodjayva, S Nishonova, J. Hasanboyev, M. Usmonboyeva, S. Madyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov.
4. O'zR Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi
5. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
6. B. X. Xadjayev. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti. Darslik -T.:,,Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil.
7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
8. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'ORGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDADA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
9. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress,